Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi .....	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari..... 714  <b>Aslanova Malohat Akramovna</b></p> <p>Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida..... 718  <b>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</b></p> <p>Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish ..... 721  <b>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</b></p> <p>Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati ..... 725  <b>Pirimova Nargiza Adilovna</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixologik va pedagogik samaradorligi..... 728  <b>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari ..... 733  <b>O'tahanova Manzura G'ofurovna</b></p> <p>Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context..... 736  <b>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</b></p> <p>Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni . 749  <b>Altibayeva Malika Kuvandikovna</b></p> <p>Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari ..... 752  <b>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</b></p> <p>Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar ..... 757  <b>Shukurova Nargiza Ikramovna</b></p> <p>Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati ..... 762  <b>Xudoyberdiyev Sh. M.</b></p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari..... 766  <b>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</b></p> <p>Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин) ..... 770  <b>Багирова Паринисо Бобировна</b></p> <p>Oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkillashtirishda nostandart testlardan foydalanishning samarali metodlari va metodik tavsiyalar..... 775  <b>Nurnazarova Gavharoy Baxtiyor qizi</b></p> <p>Umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarida oila obrazining kognitiv va emotsional komponentlari qiyosiy tahlili ..... 780  <b>Toshtemirova Nigora Ibrohimovna</b></p> <p>Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari g'oyalari integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari ..... 784  <b>Tovoshova Ozoda Akmal qizi</b></p> <p>Noto'liq oila farzandlarida emotsional-irodaviy sohani rivojlantirish orqali ijtimoiy deadaptatsiyani bartaraf etish..... 789  <b>Kaxarova Ozoda Abdimominovna</b></p> <p>Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793  <b>M. B. Pulatova</b></p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili ..... 796  <b>Maraimova Muxtabar Pulatovna</b></p> <p>Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801  <b>Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna</b></p>
-------------------------------------	---



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli .....	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'lqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	

Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<i>Sobirov Avazbek Anvarovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<i>Sultonova Nurxon Anvarovna</i>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<i>Tolipova Shohista Qudrat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<i>Turg'unova Gulzoda Botir qizi</i>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<i>Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</i>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<i>Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<i>Bilolov Inomjon O'ktamovich</i>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<i>Isayev Saidaliddinxon Islom o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<i>Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abduolim qizi</i>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<i>Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi .....	945
<i>Yusupova Umida</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik va tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlari .....	950
<i>Kadirova Omaxon Sobirjonovna</i>	
Maktab ta'limi tizimida raqamli boshqaruv modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish .....	954
<i>Raxmatova Xurshida G'ofurovna, Tangirov Xurram Ergashevich</i>	
Особенности влияния психолога дошкольной образовательной организации на психическое развитие ребенка в игровой среде .....	961
<i>Камолдинова Диёра Жалолиддин қизи</i>	
Boshlang'ich maktabda sog'lom ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirish yo'llari.....	968
<i>Fayzidinova Maxsuda Akmalovna</i>	
Maktabgacha ta'limda ma'naviy-axloqiy kompetentlikni shakllantirish: milliy va xalqaro pedagogik yondashuvlar .....	971
<i>N. R. Dushayeva</i>	
O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilarning individual profili asosida moslashtirilgan didaktik yondashuvlarni ishlab chiqish.....	975
<i>Oripova Dilnozaxon Abduvosi qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyalari .....	980
<i>Rabbimova Munisxon Mustafoyevna</i>	
O'qitishda san'at vositalaridan foydalanish genezisi va zamonaviy tajribalari.....	983
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
Sun'iy intellekt muhitida ta'lim olish jarayonida talabalarning psixofiziologik holati va kognitiv yuklamasini baholash .....	989
<i>Turayeva Irodaxon Lochinbek qizi</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning konfliktologik kompetentlikni rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	993
<i>Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, R. Rayimova</i>	
The Influence of Digitalization on Written Communication.....	998
<i>Yusupova Sitara Ashuraliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligi va ona tili darslariga zamonaviy yondashuvlar.....	1002
<i>G'oyibnazarova Nargiza Raximjonovna</i>	
O'quvchilarning ijodiy ish faoliyati malakalarni shakllantirishga mos masalalarni tanlash metodlari.....	1005
<i>Artiqov Maqsud Bahodirovich, Sherimmatova Mahfuza Rasul qizi, Sarsenbayeva Zilola Kamiljon qizi</i>	
Mashq va topshiriqlar tizimi – fonetik ta'lim samaradorligini oshirish tizimi.....	1011
<i>Ganiyeva Dildora Sagdullayevna</i>	
Psixologik treninglarning uslubiy muammolari: nazariy va amaliy tahlil.....	1015
<i>Gulchehra Utamurodova Narbayevna</i>	
O'quvchilarning kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda mental xaritalardan foydalanish imkoniyatlari.....	1018
<i>Islamova Karima Turdiyevna</i>	
Pedagogning kasbiy rivojlanishi va o'zaro xamkorlik.....	1023
<i>Karimova Gulchehra</i>	
Ta'lim boshqaruvida "yumshoq kuch" (soft skills): rahbar ayollarning psixologik va pedagogik mahorati...	1026
<i>Nomozova Roziya Omonovna</i>	
Ta'lim jarayonida psixologik muhitning ahamiyati.....	1029
<i>Qarshiboyeva Dिल्фуза Burliyevna</i>	
Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanishning samaradorligi.....	1033
<i>Qo'chqorov Mirzavali</i>	
Tarbiyachi va bola o'rtasidagi muloqotning psixologik ahamiyati.....	1036
<i>Qodirova Malikaxon Kaxramonovna</i>	
Umumta'lim tizimida o'qituvchilarning sifat faoliyatini baholovchi tizim yaratish.....	1040
<i>Sharipova Umeda Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi nutq nuqsonli bolalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy logopedik va multimodal ta'lim texnologiyalarining samaradorligi.....	1045
<i>Hasanova Gulnoz Qosimovna, Jo'rayeva Gulibonu G'ayrat qizi</i>	
Musiqqa o'qituvchilarida ijrochilik mahoratini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	1050
<i>Azimjonova Gulxayoxon Shuxratjon qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash pedagogik muammo sifatida.....	1053
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Tarbiya fanida milliy-ma'naviy meros va hadislar asosida shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirishning ilmiy-pedagogik paradigmalari.....	1058
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash mezonlari.....	1063
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Современная детская литература: тенденции, проблемы и воспитательный потенциал.....	1067
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	



# PEDAGOGLAR MALAKASINI OSHIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI



Muminova Nargiza Sabitdjanovna

Maktabgacha ta'lim instituti

“Maktabgacha va musiqiy ta'lim” kafedrası dotsenti

orcid-0009-0008-3442-043X

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, kasbiy kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va baholash ko'rsatkichlari yoritilgan. Maqolada keltirilgan xulosalar pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, baholashning kompetensiyaviy va natijaga yo'naltirilgan modelini joriy etishda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** pedagoglar baholash mezonlari, kasbiy kompetensiya, ta'lim sifati, pedagogik salohiyat, uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion pedagogik texnologiyalar, pedagogik refleksiya, baholash usullari.

**Abstract:** This article provides a scientific and theoretical analysis of the issues related to assessing the effectiveness of teachers' professional development. The concept of professional competence, its structural components, and assessment indicators are also discussed.

**Key words:** teacher evaluation criteria, professional competence, education quality, pedagogical potential, continuous professional development, innovative pedagogical technologies, pedagogical reflection, assessment.

**Аннотация:** В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы вопросы оценки эффективности повышения квалификации педагогов. Также раскрыто понятие профессиональной компетентности, ее структурные компоненты и показатели оценки.

**Ключевые слова:** Критерии оценки педагогов, профессиональная компетентность, качество образования, педагогический потенциал, непрерывное профессиональное развитие, инновационные педагогические технологии, педагогическая рефлексия, оценка.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglar malakasini oshirish pedagogik jarayonning sifatini ta'minlash va ta'limning samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim sifatini yaxshilash nafaqat o'quv jarayonining samaradorligi, balki pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari, innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlash bilan bevosita bog'liq <sup>[1, 2]</sup>. Shu sababli pedagoglar malakasini oshirishning samaradorligini baholash tizimi ta'lim boshqaruvi, davlat siyosati va o'quv jarayoni sifatini yaxshilash nuqtai nazaridan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy tadqiqotlarda pedagoglarning malaka oshirish samaradorligi ko'plab jihatlar – bilim va ko'nikmalar darajasi, pedagogik faoliyatdagi o'zgarishlar, o'quvchilarning ta'lim natijalari va ta'lim muassasasining rivojlanish ko'rsatkichlari orqali baholanishi mumkinligi qayd etilgan [4, 5]. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda esa pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi (Continuous Professional Development – CPD) konsepsiyasi asosida baholash tizimlari ishlab chiqilgan <sup>[6, 7]</sup>.

Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash masalasi zamonaviy ta'lim tizimida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta'minlash masalalari ushbu tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, malaka oshirish kurslarining mazmuni va natijadorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ayrim olimlar pedagog malakasini oshirish samaradorligini baholashda bilim, ko'nikma va malakalarning rivojla-

nish darajasi, pedagogik faoliyatdagi o'zgarishlar hamda ta'lim natijalariga ta'sirini asosiy mezon sifatida ko'rsatadilar. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari, innovatsion faoliyatga tayyorgarligi va reflektiv qobiliyatlari baholash jarayonining muhim tarkibiy qismlari sifatida talqin etiladi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda esa pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi (Continuous Professional Development – CPD) konsepsiyasi asosida malaka oshirish samaradorligini baholash masalalari keng yoritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotchilar pedagoglar malakasini oshirish jarayonida o'quv dasturlarining amaliy yo'naltirilganligi, o'qitish metodlarining interaktivligi va o'rganilgan bilimlarning real ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar ekanini ta'kidlaydilar. Baholash mezonlari sifatida pedagog faoliyatidagi sifat o'zgarishlari, o'quvchilarning ta'lim natijalari hamda ta'lim muassasasining umumiy rivojlanish ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tiladi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda malaka oshirish samaradorligini baholashda diagnostik, monitoring va reflektiv yondashuvlardan foydalanish muhimligi qayd etiladi. Xususan, formativ va summativ baholash usullarini uyg'unlashtirish, portfoliolar, kuzatuv natijalari va o'z-o'zini baholash mexanizmlaridan foydalanish pedagoglarning kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash ko'p mezonli, tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, u nafaqat pedagogning individual rivojlanishini, balki ta'lim sifatining umumiy oshishini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy ta'lim tizimi xususiyatlarini hisobga olgan holda baholash mezonlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash jarayoni tizimli va ko'pqirrali yondashuvni talab qiladi. Shu sababli tadqiqotda quyidagi metodologik tamoyillar asos qilib olindi: Tadqiqotning nazariy bazasi pedagogik kompetensiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish (Continuous Professional Development – CPD) va ta'lim sifati nazariyalari asosida shakllantirildi <sup>[1, 2]</sup>. Shu nazariy kontekstda pedagoglar malakasini oshirish samaradorligi ularning kasbiy bilim va ko'nikmalari, pedagogik faoliyatdagi innovatsion yondashuvlar, o'quvchilarning o'qish natijalari hamda ta'lim muassasasining rivojlanish indikatorlari bilan belgilanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirishni, ularning pedagogik salohiyatini oshirishni talab qiladi. Pedagoglar malakasini oshirish pedagogik va kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilashga qaratilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. Ta'lim sifati va natijadorligini ta'minlashda pedagoglar malakasini oshirish tizimining samaradorligini ilmiy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi sharoitda ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida pedagoglar malakasini oshirish jarayonini natijadorlikka yo'naltirilgan holda tashkil etish hamda uni baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Pedagoglar malakasini oshirish jarayoni quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim metodlarini o'zlashtirish;
- davlat ta'lim standartlari va kasbiy talablarga muvofiq ishlash qobiliyatini rivojlantirish;
- pedagogik mahorat, ustozlik va rahbarlik salohiyatini oshirish;
- pedagoglarning kasbiy o'sishini rag'batlantirish va kasbiy faolligini kuchaytirish.

Malaka oshirish samaradorligi pedagogning shaxsiy kasbiy rivojlanishi, ta'lim jarayoni sifati va ta'lim muassasasining umumiy natijalari bilan chambarchas bog'liq.

Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash – bu pedagogning kasbiy faoliyatidagi sifat o'zgarishlarini, yangi bilim va ko'nikmalarning amaliy faoliyatda qo'llanilish darajasini aniqlashga qaratilgan kompleks jarayondir. Zamonaviy ta'lim nazariyasida baholash kompetensiyaviy yondashuv asosida amalga oshiriladi. Kasbiy kompetensiyalar pedagogning muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy sifatlar majmuini ifodalaydi. Ularning ilmiy asosda baholanishi pedagogik samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholashda quyidagi asosiy mezonlar ajratib ko'rsatiladi:

### 1. Kasbiy bilim va metodik tayyorgarlik

- fan va pedagogik metodologiya bo'yicha bilimlar darajasi;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash qobiliyati;



- ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiqlik.

## 2. Ijodiy va innovatsion faoliyat

- innovatsion pedagogik usul va texnologiyalarni joriy etish;
- interaktiv ta'lim shakllaridan samarali foydalanish;
- ilg'or pedagogik tajribani amaliyotga tatbiq etish.

## 3. Ta'lim natijalari

- o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining o'sish dinamikasi;
- ta'lim jarayonida motivatsiya va qiziqish darajasining oshishi;
- o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishi.

## 4. Shaxsiy kasbiy rivojlanish

- malaka oshirish kurslari, trening va seminarlarda ishtirok faolligi;
- pedagogik refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati;
- yangi bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash darajasi.

## 5. Pedagogik va kommunikativ salohiyat

- kommunikativ madaniyat va pedagogik muloqot qobiliyati;
- jamoada ishlash va hamkorlik ko'nikmalari;
- pedagogik etika, mas'uliyat va kasbiy intizom.

Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholashda quyidagi kompleks usullardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- test va sinovlar – pedagogning nazariy bilimlari va kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash;
- metodik kuzatuv va ekspertiza – mashg'ulotlarni kuzatish va pedagogik faoliyatni tahlil qilish;
- pedagogik portfolio – malaka oshirish natijalari, ijodiy ishlar va yutuqlarni tizimlashtirish;
- o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar fikri – faoliyatga nisbatan ob'ektiv munosabatni aniqlash;
- o'z-o'zini baholash va refleksiya – pedagogning shaxsiy rivojlanish traektoriyasini belgilash.

Kasbiy kompetensiya pedagogning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ sifat hisoblanadi. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- nazariy bilim va kasbiy ma'lumotlar;
- amaliy ko'nikma va malakalar;
- shaxsiy va axloqiy sifatlar;
- ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalar.

Kasbiy kompetensiyalarni baholashda quyidagi ko'rsatkichlar asosiy ahamiyatga ega:

- ish samaradorligi va natijadorlik;
- innovatsion va ijodiy faollik;
- mas'uliyat, tashabbuskorlik va professional etika;
- uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish.

Pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash mezonlari ta'lim sifati va pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Aniq belgilangan mezonlar va kompleks baholash usullari pedagoglarning kasbiy salohiyatini xolisona aniqlash, ularning rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bois pedagoglar malakasini oshirish tizimida baholashning kompetensiyaviy, natijaga yo'naltirilgan va shaffof modelini joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagoglar malakasini oshirishning samaradorligini baholash tizimi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sanaladi. Analitik va empirik tadqiqotlar natijasi bo'yicha pedagoglarning kasbiy kompetensiyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyati va refleksiv salohiyati ularning o'quvchilar bilan samarali ishlash darajasini aniq belgilaydi. Shuningdek, pedagoglar malakasini oshirish jarayonida yangicha metodikalar va xalqaro tajribalarni joriy etish, pedagogning individual rivojlanishi va ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, barcha pedagoglarda malaka darajasi bir xil emas va pedagogik faoliyatda innovatsion usullarni tatbiq qilish darajasida farqlar mavjud. Shundan kelib chiqib, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirish samaradorligini nazorat qilish, baholash va monitoring tizimini yanada takomillashtirish talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini baholash tizimi nafaqat individual pedagogik rivojlanish, balki butun ta'lim muassasasining sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosadan kelib chiqib quydagi tavsiyalarni berib o'tamiz; pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini aniqlash uchun indikatorlar va mezonlarni tizimli ravishda ishlab chiqish, ularni standartlashtirish va amaliy tatbiqini ta'minlash., pedagoglar uchun muntazam kurslar, seminarlar, master-klasslar va onlayn treninglarni tashkil etish, ularning bilim va ko'nikmalarini zamonaviy talablar darajasida oshirish, STEAM, MONTESSORI, REGGIO EMILIA kabi pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, pedagoglarning o'z-o'zini baholash, kuzatuv va portfoliolar orqali faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish, pedagoglar malakasini oshirish samaradorligini nazorat qilish va qo'llab-quvvatlashda rahbarlarning faol ishtirokini ta'minlash, samarali metod va tizimlarni o'zlashtirish, ularni mahalliy ta'lim sharoitiga moslashtirish, pedagoglarning malaka oshirish jarayoni va natijalari ustidan doimiy monitoring, tashqi baholash va akkreditatsiya tizimini joriy etish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashga, ta'lim sifatini oshirishga va ta'lim muassasalarining umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ–3305-son qarori “Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ–4312-son qarori “O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son qarori “Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida”.
4. Abdurahmonov, Q.X. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: “Fan”, 2020. – 256 b.
5. Jo'raeva, N.J. “Maktabgacha ta'lim tizimida davlat va nodavlat sektor hamkorligining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati” // Pedagogik ta'lim jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–49.
6. Rahmatova, D.M. “Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari” // Zamonaviy ta'lim. – 2022. – №2. – B. 62–66.
7. Mirziyoyev Sh. Pedagogik nazariya va amaliyot asoslari. – Tashkent: “Ta'lim”, 2022. – 312 p.
8. OECD. Teaching and Learning International Survey (TALIS). – OECD Publishing, 2020.
9. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2021/2: NonState Actors in Education. – Paris, UNESCO, 2021.
10. DarlingHammond, L., Hylar, M.E., Gardner, M. Effective Teacher Professional Development. – Stanford, CA: Learning Policy Institute, 2017.
11. Guskey, T.R. Evaluating Professional Development. – Corwin Press, 2000.
12. European Commission. ET 2020 Working Group on Teachers and School Leaders: Improving Initial Teacher Education. – Brussels, 2019.
13. Hargreaves, A., Fullan, M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. – Teachers College Press, 2012.
14. Campbell, A., et al. Assessing Teacher Effectiveness: Benefits and Concerns. – Washington, D.C.: World Bank Publications, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.